

**KICHIK ODATLAR KATTA NATIJALARGA OLIB KELADIMI?**

*O'zbekiston davlat jahon tillari unversiteti*

*Xalqaro jurnalistika fakulteti*

*Axiz2403 guruh talabasi **Isomidinova Ruxsora***

Har bir inson hayotda muvaffaqiyatga erishishni, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishni istaydi. Ko'pchilik bunga erishish uchun katta ishlar qilish kerak deb hisoblaydi. Aslida esa insonning kundalik hayotidagi kichik odatlari uning kelajagini belgilab beradi. Har kuni bajariladigan oddiy ishlar vaqt o'tishi bilan katta natijalarga sabab bo'lishi mumkin.

Masalan, har kuni bir necha sahifa kitob o'qish insonning bilimini oshiradi. Dastlab bu juda kichik ishdek ko'rinadi, ammo bir yil davomida muntazam kitob o'qigan odam yuzlab sahifalarni mutolaa qilgan bo'ladi. Xuddi shuningdek, har kuni sport bilan shug'ullanish ham inson salomatligini mustahkamlaydi. Bir kunda katta o'zgarish sezilmasligi mumkin, lekin uzoq muddat davomida bu odatning foydasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Kichik odatlar insonning xarakterini ham shakllantiradi. Vaqtida uyg'onish, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, tartib-intizomga rioya qilish kabi odatlar mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Bunday insonlar hayotda ko'proq muvaffaqiyat qozonadilar va o'z maqsadlariga tezroq erishadilar.

Aksincha, zararli odatlar ham vaqt o'tishi bilan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Vaqtni behuda sarflash, dangasalik qilish yoki mas'uliyatsizlik bilan ish tutish insonning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli har bir inson o'z odatlariga e'tibor berishi va foydali odatlarni shakllantirishga harakat qilishi kerak. Xulosa qilib aytganda, katta natijalarga erishishning siri ko'pincha kichik odatlarda yashiringan bo'ladi. Inson bugun qilayotgan kichik ijobiy ishlari orqali ertangi muvaffaqiyatiga poydevor yaratadi. Shuning uchun har birimiz foydali odatlarni shakllantirishga va ularga qat'iy amal qilishga intilishimiz lozim.